

saqlash sharoitlari aniqlanadi, gʻunajinlarni tugʻishga tayyorlash va birinchi tugʻim sigirlarni iydinsh jarayonlari ularning mahsuldorligini oshirishga qaratiladi. Sut ishlab chiqarishni koʻpaytirish, sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirish muammolari sermahsul birinchi tugʻim sigirlarni oʻstirish texnologiyasini takomillashtirish samarali usullarini ishlab chiqish asosida amalga oshirilganligi uchun dolzarb boʻlib, xalq xoʻjaligida katta amaliy ahamiyatga egaligi ushbu ishni bajarishga asos boʻladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Maksudov I. Qoramolchilik bilan shugʻullanuvchi fermerlar uchun qoʻllanma. Samarqnd, 1997.
2. Maksudov I. Fermer xoʻjaligida podani toʻldiruvchi urgʻochi tanalarni oʻstirish. SamQXI ilmiy toʻplami, 1997, 118 b.
3. Maksudov I, Sobirov P.S, Doʻstqulov S.D. Sutchilik xoʻjaligini tashkil qilish tajribasidan. SamQXI ilmiy toʻplami, 2001 y, 185-191

## **BALIQLARNI OZIQLANTIRISH**

### **B.K.Kojambergenov**

Qaraqalpaqstan Respublikasi “Qaraqalpaqbalıq” birlespesi monitoring bólimi  
jetekshi qániygesi

**Annatatsiya:** *Maqolada polikultura usulida baliq yetishtirishning texnologik xususiyatlari keltirilgan boʻlib, zot xillari, yashash sharoiti, koʻpayishi, yosh baliq chavoqlarini oʻstirish va zamonaviy intensiv texnologiyalarni qoʻllash.*


**Kalit soʻzlar:** Intensiv, Hovuz, zot, zaxira, polikultura, ozuqa, oʻgʻit, baliq, chavoq.

**Kirish.** Respublikada sohani rivojlantirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 1 maydagi “Baliqchilik tarmogʻini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari” toʻgʻrisidagi PQ-2939- sonli, “Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar” PQ-4005-sonli qarorlariga asosan baliqchilikning xuquqiy-meʼyoriy asoslari yaratildi. Jumladan, oliy va oʻrta mahsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida kadrlar, shuningdek, baliqchilik tarmogʻi uchun ilmiy tadqiqotchilar, ixtiolog mutaxassislar tayyorlashning oʻquv rejalari hamda dasturlarini takomillashtirish va yangilash, kadrlar malakasini oshirish masalalari koʻtarilgan. 2022-yil 1-fevraldan boshlab jismoniy shaxslarga oʻzini oʻzi band qilgan shaxs sifatida oʻz xonadonida baliq yetishtirishni yoʻlga qoʻyishga ruxsat beriladi hamda 2025-yil 1-yanvarga qadar baliqchilikni intensivlashtirish uchun zarur boʻlgan asbob-uskunalar va texnologiyalar (aerator, basseyn, avtokormushka, UZV) hamda qayta ishlash uskunalarni ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻygan, biroq daromadining 80 foizidan ortigʻini ushbu uskunalarni ishlab chiqarishdan oladigan subyektlar uchun foyda soligʻi (tijorat banklarida joylashtirilgan mablagʻlardan olingan foizlardan tashqari), yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 50 foizga kamaytiriladi;

Hovuzlarda juda ko‘plab baliqlar yashab ko‘paysalarda, xo‘jalik nuqtai nazaridan ularning ma‘lum bir qismidagina foydalaniladilar xolos.

Karp, oq amur, karas, lin, qalin peshonador, sazan, mruk, pelyad, farel, sig, sudak kabi baliqlarning go‘shiti xushta‘m bo‘lib, nisbatan jadal o‘ssalarda ayrimlari yashash sharoitlariga o‘ta talabchan. Ba‘zi baliq turlari (peskar, gorchak, vyerxovka, kolyushka, golyan) juda sekin o‘sadi, tanasi o‘ta qiltiqli hamda oziq – ovqat sifatida deyarli yaroqsizdir.

**Sazan** – tanasi tillarang, yirik, bir-biriga mahkam yopishgan qalin tangachalar bilan qoplangan. Og‘zi harakatchan, ikki juft mo‘ylovi bor. Gavda uzunligi balandligiga nisbatan qariyb 3 marta uzun. Urg‘ochilari 4 – 5 yoshida jinsiy voyaga yetadi. Erkaklari ulardan bir yil avval yoki 3 – 4 yoshida jinsiy voyaga yetadi. O‘ta qulay yashash sharoitida har ikkala jinsdagilari ham yuqorida qayd qilinganidan bir yil avval jinsiy voyaga yetadilar. Tabiiy sharoitda uzunligi 1,5 metr, vazni 20 kg. gacha bo‘lganlari uchraydilar.



**1-rasm. (Sazan)**

Yaxshi isiydigan kichik suv havzalarida may – iyun oylarida, undagi suv 16 – 19° S iliganda ikra bera boshlaydi. Ikralari kleysimon bo‘lib, kichik sarg‘ish rangli, hovuz tubidagi o‘tlarning barglari va poyalariga yopishib turadi. Suvning haroratiga ko‘ra, ikralardan 3–7 kunda lichinkalar ochilib chiqadilar. Ochilib chiqqan lichinkada kichginagina sariq tanacha bo‘lib, ma‘lum vaqt (1–2 kun) gacha ular o‘simliklarning poya va barglariga mahsus ipchalari (bissus) yordamida osilib turadi va sariq tanacha ichidagi oziqa zahirasi bilan oziqlanadi, keyin harakatga kelib mustaqil oziqlana boshlaydi.

Sazan juda jadal o‘sadi. Hovuzlardagi oziqalar miqdoriga ko‘ra shu yilgi olingan baliqlar kuzga kelib, 30 – 100 g. va undan ham ko‘proq vaznga yeta oladilar. Sazan hammaxo‘r baliq. U jonivorlardan tashqari turli o‘simliklarning urug‘larini, ba‘zan boshqa baliqlarning ikralarini, hatto lichinkalarni ham yeydilar. Kuz kelib suv haroratining pasayishi bilan uyum – uyum bo‘lib to‘planib suvning pastki qatlamida g‘ovaklarga joylashib oladi, ayrim issiq qonli jonivorga o‘xshab uyquga ketadilar. Qish paytida sazan oziqlanmaydi, shuning uchun ko‘klamgacha kuzdagi vaznini bir muncha (10–15 %) yo‘qotadi. Vazn yo‘qotilishi hayot faoliyatini saqlash uchun tanadagi oqsil va yog‘lar zaxirasining sarflanishi tufayli sodir bo‘ladi. Sazan serurug‘ bo‘lib, tanasining katta – kichikligiga ko‘ra 100 mingdan 1,8 milliongacha ikra beradilar.

Hovuz baliqchiligi xo‘jaliklarida ko‘p asrlik seleksiya natijasida kelib chiqqan.

**Oq amur** – karpsimonlar oilasiga mansub bo‘lib, tanasining yirikligi bilan farqlanadi. Gavda uzunligi 1 metrdan uzun vazni 30 kg. dan ziyotroqlari uchrab turadi. O‘rtacha 80 sm., vazni 8 – 10 kg. atrofida bo‘ladi. Amur havzalarida va

Xitoyda kengroq tarqalgan. Gavdasi uzun urchuqsimon, peshonasi keng, og‘zi yarim pastki ko‘rinishda. Go‘шти yog‘li va shirin. Sazanga nisbatan tezroq o‘sadi. Oziqalarga unchalik talabchan yemas. Oliy suv o‘tlari, hatto daraxtlarning barglarini, suv bosgan o‘tloqlardagi o‘tlarni ham iste‘mol qila oladilar. Ba‘zan hashoratlarni, chuvalchang va mayda baliqchalarni ham yeydilar.

Oq amurning lichinkalari planktonlar bilan oziqlanib, bir oyliklar bo‘lgandan keyin o‘simliklarni iste‘mol qilishga o‘tadilar. 4 – 8 yoshlarida gavadasi 75 – 80 sm. bo‘lganda jinsiy voyaga yetadilar.

Daryolarning tez oqar suvli joylarida apreldan avgust oylari oralig‘ida suvning harorati 20 – 30° S oralig‘ida urchiydilar. Ikralari inkubatsiya jarayonida suv qatlamida muallaq turadi. Xitoyda sun‘iy havzalarda uzoq vaqtdan beri urchitib kelinadi. Bizning Respublikamizda ham ushbu baliqlarni urchitishni ko‘paytirishga alohida e‘tibor berilmoqda.



**2-rasm. (Oqamur)**

**Xulosa.** Polikultura usulida baliqlarni yetishtirishning afzalligi shundaki, bu usulda suvning sifati buzilmaydi va boshqa turdagi baliqlar bir-biriga yashash sharoiti bo‘yicha ta‘siri yo‘q. Ozuqalar isrof bo‘lmaydi. Baliqlar qafasni ichida parvarishlanib, yetilish jadal bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

2. I.Xalimov. M.K.Narbayeva. Baliqchilik bilan shug‘illanuvchi fermer xo‘jaliklari uchun uslubiy qo‘llanma. 2017 y.

3. M.K.Narbayeva, X.A.Mamatov, N.N.Adizova. “Yarim intensiv havzalarini aeratorlar orqali kislarodga boyitish va baliq mahsuldorligini oshirish” Тенденции развития ветеринарной паразитологии на пространстве СНГ и других стран в начале XXI века. 2021 28-30 апреля. С. 252-254

4. M.Sh.Ochilova, M.A.Abdulboqiyeva, X.A.Mamatov. “Basseynlarda baliq yetishtirish”. Chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirishda innovatsion yondoshuv. 2023 y. 10 fevral. 7-10 B.